

TALABALARDA INTELEKTNI RIVOJLANTIRISHDA KROSS MADANIYATNING RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ro'ziboyeva Ma'muraxon Abdunabiyevna

"University of economics and pedagogy", NOTM dotsent v.b.

Annatatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak mutaxassisni har tomonlama rivojlangan komil inson qilib tarbiyalash o'quv muassasasida zamonaviy ta'lim berishning asosiy maqsadi ekanligi, ta'lim tizimi ijtimoiy-iqtisodiy talablarga yo'naltirilgan va ma'lum sohadan yaxshi xabardor bo'lgan, malaka, ko'nikma, mahoratga ega mutaxassisga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojga bog'liq bo'lishi, ular doimo o'z bilimlari, intellektual qobiliyatlari, madaniyatini to'ldirib va takomillashtirib borishi, talabalar intellektual madaniyatini shakllantirishga bo'lgan asosiy yondashuvlar tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: intellekt, koss, madaniyat, metodika, mahorat, ko'nikma, mutaxassis, qobiliyat, yondoshuv.

МЕТОДОЛОГИЯ КРОСС-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Рузибоева Маъмурахон Абдунабиевна

«Университет экономики и педагогики», НОТМ доцент

Аннотация: В статье утверждается, что основной целью современного образования в образовательном учреждении является воспитание будущего специалиста как всесторонне развитой личности, что система образования ориентирована на социально-экономические потребности и зависит от общественной потребности в специалисте, который хорошо разбирается в определенной области, имеет квалификацию, умения и навыки, а также что они Изучены основные подходы к постоянному пополнению и совершенствованию своих знаний, интеллектуальных способностей и культуры, формированию интеллектуальной культуры учащихся.

Ключевые слова: интеллект, культура, методология, умение, способность, эксперт, способность, подход.

METHODOLOGY OF CROSS-CULTURAL DEVELOPMENT AND INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF STUDENTS

Ruziboeva Ma'murakhan Abdunabievna

"University Economics and Pedagogy", NOTM docent

Annotation: In the state it is confirmed that the basic goal of modern education in an educational institution is the education of a future specialist as a universally developed

person, that the education system is oriented towards social and economic needs and depends on the social needs of a specialist who is well understood in a specific area and has qualifications. art i skills, a takje chto oni Izucheny osnovnye approach to constant improvement and improvement of knowledge, intellectual abilities and culture, formation of intellectual culture.

Key words: intellect, culture, methodology, umenie, ability, expert, ability, podkhod.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Shaklan ham, mazmunan ham madaniyatning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekistonning mustaqil rivojlanishga utishi milliy madaniyatga sinfiy yondashishdan, uni sun'iy tarzda „yagona umummadaniyat“ga aylanishdan saqlab qoldi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mustaqillikkacha bo'lgan so'nggi yetmish yil davomida madaniyat hukmron mafkura, mustabid tuzum tazyiqida G'arb madaniyatiga taqlid ruhida rivojlandi. Ikkinchidan, milliy madaniyatning boy o'tmishi bir yoklama o'rganilib, uning ko'pgina bebaho durdonalaridan xalqimiz bebahra bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Ma'daniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada „madaniyat“ atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi.

Madaniyat — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. „Madaniyat“ tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (mas, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izoxlash uchun qo'llanadi. Tor ma'noda „madaniyat“ atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. „Madaniyat“ arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroi turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqa shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Forobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, „oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi“, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta'kidlashicha, „madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-xunarda ozod, hamma babbaravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi

bilan ozod yashaydilar“. Alisher Navoiy yetuk axloq, ma’rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma’naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezoni deb insonparvarlik g‘oyalariga muvofiqlikni tushundi. 19-asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan demokratikma’rifatparvarlik harakatining namoyandalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Ahmad Donish, Avaz O‘tar, Komil Xorazmiy va boshqa xalqni madaniyatli qilishning omili ilmima’rifatni egallashda deb bildilar. Ular o‘rta asr jaholatiga qarshi xalq o‘rtasida ilmamaorif va madaniyatni zo‘r ehtiros bilan targ‘ib qildilar. Mas, Furqat fikricha, ilmfan bir mash‘-al bo‘lib, insoniyatning baxt-saodat yo‘lini yoritib turishi kerak. 19-asrning oxiri va 20-asrning boshida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati namoyandalari, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va boshqa o‘zlarining ma’rifatparvarlik ishlari bilan madaniyat rivojiga muhim hissa qo‘shdilar. Ular turli gaz. va jur.lar chiqardilar, nashriyot va bosmaxonalar tashkil etdilar, kutubxonalar, teatrlar, yangicha maktablar ochdilar, o‘tmish madaniyatimizni, tariximizni targ‘ib qildilar, dunyoviy bilimlarni chuqur egallashga da’vat etdilar. Ma’rifatchilikning keng quloch yoyishi samarasi o‘laroq, xalqning umummadaniyati yuksala bordi.

Yevropada „Madaniyat“ deyilganda dastlab insonning tabiatga ko‘rsatadigan maqsadga muvofiq ta’siri, shuningdek, insonga ta’limtarbiya berish tushunilgan (lot. cultura — yerni ishlash, parvarishlash; ruschadagi „kultura“ so‘zi ham shundan olingan). madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlariga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini rag‘batlantirishni ham o‘z ichiga olgan. Madaniyatga bunday ikki yoqlama yondashuv har qanday jamiyatga xos (mas, Qad. Xitoyda jen, Hindistonda dharma). Ellinlar „madaniyatsiz“ varvarlardan o‘zlarining asosiy farqini „paydey“, ya’ni „tarbiyalanganlik“da deb bilganlar. Qad. Rimning so‘nggi davrlarida „Madaniyat“ tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va o‘rta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushuncha keyinchalik kelib chiqqan sivilizatsiya tushunchasiga yaqin turadi.

Madaniyatning ilmiy, tarixiy konsepsiyalariga qarama-qarshi o‘laroq, marksistik nazariya ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi, ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarining o‘zaro munosabati haqidagi qoidalaridan kelib chiqib, antagonistik jamiyatlarda madaniyatning sinfiy karakteri haqidagi qoidalarni ilgari surdi. Antagonistik formatsiyalarda har bir milliy madaniyatda ikki madaniyat borligi haqidagi lenincha qarash „hukmron ekspluatatorlik“ madaniyatiga „progressiv demokratik“ va „sotsialistik“ madaniyat elementlarini qarama-qarshi qo‘ydi. Ana shu qoidadan kelib chiqib, mustabid sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan „madaniy inqilob“ natijasida ko‘pgina xalqlar madaniyatining ajoyib durdonalari yo‘q qilinib, madaniy merosning milliy ildizlari barbod etildi.

Madaniyat kishilar faoliyatining faqat moddiy natijalari (mashinalar, texnik inshootlar, san’at asarlari, huquq, axloq normalari va hokazo)ni emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo‘ladigan subyektiv kuch-quvvatlari va qobiliyatlari (bilim va ko‘nikmalari, ishlab chiqarish va professional malakalari, intellektual, estetik va axloqiy



kamoloti, dunyoqarashi, ularning jamoa va jamiyat doirasidagi o'zaro muomalalari)ni ham o'z ichiga oladi.

Madaniyatning 2 asosiy turi — moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyatmoddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini hamda uning natijalari (mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga ong, ma'naviyat sohalar kiradi (bilim, axloq, ta'limtarbiya, huquq, falsafa, etika, estetika, fan, san'at, adabiyot, mifologiya, din va boshqalar).Har bir jamiyat o'z madaniyat tipiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat tipi ham o'zgaradi, biroq bu hol madaniyat taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyat yo'q bo'lib madaniy meros, o'tmish qadriyatlardan voz kechilganini anglatmaydi. Zotan, har bir yangi jamiyat o'zidan ilgarigi jamiyatning madaniy yutuklarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A., O'zbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-j., T., 1996; Ma'naviy yuksalish yo'lida, T.,1998; Xayrullayev M. M., Shorahmedov D.A., Madaniyat va meros. T., 1973.
2. ХАШИМОВА С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.
3. ХАШИМОВА С. Некоторые грамматические и семантические особенности удвоения в японском языке. - Страны. Языки. Культура. – С. 334-338.
4. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). Features of forming of animated nouns with the affixes in modern Chinese Language. Journal of Central Asian Social Studies, 2(04), 1-10
5. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1086-1092.